



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 02 | pp. 230-239 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TARTIBGA SOLISHDA PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING O'ZIGA XOS XUSISIYATLARI



Sulaymanov Samandarboy Adhambek o'g'li

TDIU-Krems AFU xalqaro qo'shma ta'lim dasturi
fakulteti dekan o'rinbosari, TDIU IMC Krems Transmilliy
dasturlari kafedrası mustaqil izlanuvchisi
E-mail: sulaymanovsamandarboy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola tijorat banklarining likvidligini boshqarishning iqtisodiy barqarorlik va ishonchli faoliyat uchun muhimligini tahlil qiladi. Unda pul-kredit siyosati instrumentlari, xususan, ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxira talablari, qayta moliyalashtirish mexanizmlari va banklararo kreditlash tizimining xalqaro va O'zbekiston tajribasidagi o'rni ko'rib chiqilgan. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2015-yilda qabul qilingan nizom va 2024-yilda tasdiqlangan favqulodda kreditlar ajratish tartibi asosida banklar likvidligini boshqarish amaliyoti, shuningdek, UZONIA va asosiy stavkaning dinamikasi tahlil qilingan. Maqolada iqtisodiy nazariyalar (Keynes, Friedman, Tobin, Mundell, Bernanke va boshqalar) va tajriba asosida metodologik yondashuvlar yoritilib, bank tizimidagi moliyaviy risklarni kamaytirish, axborot almashinuvi va innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali tizim samaradorligini oshirish bo'yicha xulosalar va takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: pul kredit siyosati, UZONIA, inflyatsiya, moliyaviy barqarorlik, kredit, majburiy zaxira, inflyatsion targetlash, innovatsion texnologiyalar, elektron to'lov tizimlari, likvidlilik .

Annotation: This article examines the critical role of liquidity management in commercial banks for ensuring economic stability and reliable operations. It analyzes the effectiveness of various monetary policy instruments—including open market operations, reserve requirements, refinancing mechanisms, and the interbank lending system—in both international practice and within Uzbekistan. The study reviews the liquidity management framework established by the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, notably the regulation adopted in 2015 and the emergency credit allocation procedure approved in 2024, along with an evaluation of UZONIA and the dynamics of the key policy rate. Drawing on the economic theories of scholars such as Keynes, Friedman, Tobin, Mundell, and Bernanke, as well as empirical evidence, the article provides methodological insights and formulates conclusions and recommendations. These aim to reduce financial risks

within the banking system, enhance overall efficiency through improved information exchange, and implement innovative technological solutions.

Keywords: Monetary policy, UZONIA, inflation, financial stability, credit, mandatory reserve, inflation targeting, innovative technologies, electronic payment systems, liquidity.

Аннотация: В данной статье рассматривается ключевая роль управления ликвидностью коммерческих банков для обеспечения экономической стабильности и надежной работы. Анализируется эффективность различных инструментов денежно-кредитной политики, включая операции на открытом рынке, резервные требования, механизмы рефинансирования и систему межбанковского кредитования, как в международной практике, так и в контексте Узбекистана. Исследование посвящено анализу системы управления ликвидностью, установленной Центральным банком Республики Узбекистан, в частности, регулятивным мерам, принятым в 2015 году, и процедурам экстренного распределения кредитов, одобренным в 2024 году, а также оценке динамики показателя UZONIA и ключевой процентной ставки. Опираясь на экономические теории таких ученых, как Кейнс, Фридман, Тобин, Манделл и Бернанке, а также на эмпирические данные, статья предлагает методологические подходы и формулирует выводы и рекомендации. Они направлены на снижение финансовых рисков в банковской системе, повышение общей эффективности за счет улучшения обмена информацией и внедрения инновационных технологических решений.

Ключевые слова: денежно-кредитная политика, UZONIA, инфляция, финансовая стабильность, кредит, обязательные резервы, инфляционное таргетирование, инновационные технологии, электронные платежные системы, ликвидность.

Introduction (Kirish)

Tijorat banklarining likvidliligini samarali boshqarish ularning moliyaviy barqarorligi va iqtisodiyotdagi ishonchli faoliyatini ta'minlashning muhim omillaridan biridir. Markaziy bank tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosati ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynab, tijorat banklarining likvidliligini tartibga solish uchun turli monetar instrumentlardan foydalaniladi. Xalqaro amaliyotda ochiq bozor operatsiyalari, majburiy zaxira talablari, qayta moliyalashtirish mexanizmlari va banklararo kreditlash tizimi kabi instrumentlar muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, rivojlangan mamlakatlarda bank tizimi likvidliligini ta'minlashda banklararo pul bozori faolligi va qimmatli qog'ozlar bozorining yuqori rivojlanganligi muhim omillar sifatida e'tirof etiladi.

O'zbekiston Respublikasida ham bank sektorini isloh qilish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2015-yil 22-iyuldagi 19/14-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklarining likvidliligini boshqarishga qo'yiladigan talablar to'g'risidagi nizom" da banklarning likvidlilik darajasini boshqarish bo'yicha aniq talablar belgilangan. Ushbu nizom tijorat banklarining likvidliligini boshqarish jarayonida rioya etilishi lozim bo'lgan me'yor va qoidalarni o'z ichiga oladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2024-yil 9-noyabrda qabul qilingan "Tijorat banklarining likvidliligini favqulodda qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi nizom"da banklarning likvidlilik muammolarini bartaraf etish maqsadida favqulodda kreditlar ajratish tartibi belgilangan. Ushbu hujjat kuchga kirishi tijorat banklarining likvidliligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Tijorat banklarining likvidlilik boshqaruvini samarali tashkil etish nafaqat ularning qisqa muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash, balki uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Shu boisdan, tijorat banklarining likvidliligini tartibga solish mexanizmlarini yanada takomillashtirish, mavjud monetar instrumentlarning samaradorligini chuqur tahlil qilish va ularni ilg'or xalqaro amaliyot asosida rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur maqolada tijorat banklari likvidliligini boshqarish jarayonida pul-kredit siyosati instrumentlarining o'rni va samaradorligi o'rganilib, ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Methodology (Metodologiya)

Moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashda monetar siyosatning roli beqiyosdir. Ushbu siyosat, xususan, tijorat banklarining likvidlik resurslarini boshqarish, kredit tizimini tartibga solish va moliyaviy risklarni kamaytirishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli, global va mintaqaviy iqtisodchilar bu sohani chuqur o'rganib, monetar siyosatning samaradorligi va bank tizimidagi o'rnini turli nazariy va amaliy yondashuvlar orqali tahlil qilishgan.

J.M. Keynes, M. Friedman, J. Tobin, R.A. Mundell kabi taniqli olimlar monetar nazariyaning asoslarini shakllantirishga o'z hissalarini qo'shgan. Ayniqsa, Keynesning likvidlikka bo'lgan ehtiyojga oid tushunchalari banklar tomonidan resurslarni boshqarishda asosiy yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari, Bernanke va Gertlarning tadqiqotlari pul-kredit siyosatining iqtisodiy sikllarga ta'sirini yoritib, uning samaradorligini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Monetar siyosatning instrumentlari orasida foiz stavkalarini belgilash, ochiq bozor operatsiyalari va majburiy rezerv talablarining o'ziga xos o'rni bor. J.E. Stiglits, A.S. Blinder va Y. Altunbasning ishlarida ushbu vositalarning bank tizimida qanday rol o'ynashi va ularning samaradorligi batafsil tahlil etilgan bo'lsa, Taylorning foiz stavkalari bo'yicha qoidalari Markaziy bank qarorlarining asosiy mezoniga aylangan.

Shuningdek, Rossiya iqtisodiy maktabi vakillari, jumladan S.R. Moisyev, D.I. Kondratov va Ye.A. Leonteva, o'z tadqiqotlarida bank tizimining barqarorligini oshirish va pul-kredit siyosatining iqtisodiy o'zgarishlarga ta'sirini chuqur o'rganishgan. O'zbek tadqiqotchilari esa, T. Qoraliyev, N. Jumayev, A.U. Burxonov, O. Namozov va T. Boboqulov, mintaqaviy sharoitlarga moslab, tijorat banklarining likvidligini nazorat qilish hamda Markaziy bankning strategik rolini baholashga qaratilgan ilmiy ishlar olib borgan.

Natijada, ushbu ilmiy-tadqiqot faoliyati O'zbekiston bank sektorini yanada mustahkamlash, monetar siyosat instrumentlarining optimal qo'llanilishini ta'minlash va kredit bozorining o'sish salohiyatini oshirish bo'yicha strategik tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Results (Natijalar)

Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosati tashqi iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi, milliy iqtisodiyotda olib borilayotgan tarkibiy islohotlarning ko'lami hamda inflyatsion jarayonlarning sekinlashishi fonida nisbatan qat'iy darajada shakllanib, "nisbatan qat'iy" pul-kredit sharoitlari barqaror saqlanmoqda.

Bundan tashqari, xalqaro moliya bozorlaridagi qat'iy sharoitlar va ayrim savdo hamkorlarida valyuta kurslarining qadrsizlanishi ikki xil iqtisodiy oqibatni keltirib chiqarmoqda. Bir tomondan, bu ichki iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlash maqsadida tashqi resurslarni jalb qilish jarayonini murakkablashtirsa, ikkinchi tomondan, valyuta oqimlaridagi nomutanosibliklarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

1-jadval

Asosiy stavka dinamikasi, foizda

Amal qilish muddati	Foiz (%)
26.07.2024 -	13.5
17.03.2023 - 25.07.2024	14
22.07.2022 - 16.03.2023	15
10.06.2022 - 21.07.2022	16
18.03.2022 - 09.06.2022	17
11.09.2020 - 17.03.2022	14
15.04.2020 - 10.09.2020	15
25.09.2018 - 14.04.2020	16
28.06.2017 - 24.09.2018	14
01.01.2015 - 27.06.2017	9
01.01.2014 - 31.12.2014	10
01.01.2011 - 31.12.2013	12
15.07.2006 - 31.12.2010	14
21.12.2004 - 14.07.2006	16
05.07.2004 - 20.12.2004	18
10.09.2003 - 04.07.2004	20
16.07.2003 - 09.09.2003	24
01.01.2002 - 15.07.2003	30
01.07.2000 - 31.12.2001	24
01.06.2000 - 30.06.2000	28
01.05.2000 - 31.05.2000	29
01.04.2000 - 30.04.2000	30
01.01.1998 - 31.03.2000	36
01.11.1997 - 31.12.1997	30
01.01.1997 - 31.10.1997	40
01.08.1996 - 31.12.1996	48
01.07.1996 - 31.07.1996	60
01.08.1995 - 30.06.1996	84
01.07.1995 - 31.07.1995	120

20.03.1995 - 30.06.1995	300
01.02.1995 - 19.03.1995	250
01.10.1994 - 31.01.1995	225
02.05.1994 - 30.09.1994	150

Asosiy stavka pul-kredit siyosatining muhim vositasi bo'lib, inflatsiyaning barqaror 5 foizlik maqsadli darajasida shakllanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan pul-kredit sharoitlarini belgilashga xizmat qiladi.

Asosiy stavka banklararo pul bozoridagi qisqa muddatli likvidlikning qiymatini, xususan UZONIA (Overnight Uzbekistan Interbank Weighted Average Interest Rate) darajasini aniqlaydi. Bu tijorat banklari o'rtasida "overnight" shartlar asosida qarz berish va olish foiz stavkasining maqsadli ko'rsatkichidir.

"UZONIA" foiz stavkasi Banklararo pul bozorida kun davomida amalga oshirilgan "80 foizlik qirqilgan" overnayt depozit operatsiyalari bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkasi ko'rinishida hisoblanadi. Pul bozoridagi amaliyotlar sifatida O'zbekiston respublika valyuta birjasidagi "Banklararo pul bozoridagi elektron savdo platformasi"da tijorat banklari o'rtasida amalga oshirilgan overnayt depozit operatsiyalari olinadi.

2-jadval

UZONIA foiz stavkasi dinamikasi, foizda¹

Sana	UZONIA	7-kunlik UZONIA	30-kunlik UZONIA	90- kunlik UZONIA	180- kunlik UZONIA	UZONIA indeksi
01.11.2024	13.3091	13.3908	13.4878	13.5644	14.0668	149.6361
03.01.2024	14.0000	13.6510	13.9910	14.2387	14.3563	133.3375
04.01.2023	14.0500	14.1943	14.1183	14.2537	14.8601	116.2264
01.07.2022	16.3990	16.7623	17.1239	18.0229	16.3236	108.0500
04.04.2022	18.0000	18.0111	15.6597	14.0021		103.4526
03.02.2022	13.0000	13.0119	12.8777			101.0584
11.01.2022	12.8735	12.9818				100.2490
10.01.2022	13.0000					100.2136
08.01.2022	12.9535					100.1779
07.01.2022	13.0000					100.1069
06.01. .2022	13. 0000					10 0.0712
05.01. .2022	13. 0000					10 0.0356

Pul bozorining benchmark foiz stavkasi sifatida qabul qilingan UZONIA foiz stavkasi 2023-2024-yillarda to'liq foiz koridori doirasida shakllanib, asosiy stavkaga yaqin darajada saqlanmoqda. UZONIA stavkasining asosiy stavkadan farqining qisqarishi bank tizimida umumiy likvidlik profitsitining pasayishi va narx belgilash jarayonidagi ijobiy dinamik o'zgarishlar bilan izohlanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Banklararo pul bozorining "UZONIA" indeksini (Uzbek overnight Index Average - o'rtacha overnayt indeks) hisoblash va e'lon qilish metodologiyasi <https://cbu.uz/upload/medialibrary/fd7/b4hu5zm322568d7e7iue4idilf88vmj/UZONIA-hisoblash-metodologiyasi.pdf>

UZONIA stavkasining o'rtacha 13,5 foiz atrofida shakllanishi turli muddatli foiz stavkalarining ham kumulyativ hisobda ushbu darajaga yaqinlashishiga xizmat qilmoqda, bu esa pul bozorida likvidlik boshqaruvi samaradorligini oshirishga yordam bermoqda.

Majburiy zaxiralash vositasi tarixan bank depozitlari uchun zaruriy zaxira buferini shakllantirish maqsadida qo'llanib kelingan. Biroq, ayrim davlatlarda bu vosita makroprudensial boshqaruv yoki kapital harakatini tartibga solish instrumenti sifatida ham qo'llanilmoqda.

Inflyatsion targetlash rejimida mazkur vosita ko'plab mamlakatlarda bank tizimidagi likvidlikni boshqarish orqali pul-kredit siyosatining operatsion maqsadlariga erishishda muhim o'rin tutadi. O'zbekiston ham inflyatsion targetlash rejimiga o'tish jarayonida majburiy zaxiralash vositasini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirdi.

Xususan, 2018-yilda barcha turdagi va muddatdagi depozitlar uchun umumiy majburiy zaxiralash me'yorlarini belgilash amaliyoti joriy etildi. Milliy valyutadagi depozitlar uchun 4 foizlik, xorijiy valyutadagi depozitlar uchun esa 14 foizlik normativlar belgilandi. Ushbu differensial normativlarning kiritilishi bank tizimidagi depozitlar dollarizatsiyasini qisqartirish orqali pul-kredit siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan edi.

Shuningdek, 2018-yilda ilk bor o'rtachalashtirish amaliyoti test rejimida joriy etilib, 10 foizlik o'rtachalashtirish koeffitsienti belgilandi. Ushbu mexanizm banklarga Markaziy bankdagi "majburiy zaxiralash" hisobvarag'ida saqlanayotgan mablag'larning bir qismini vakillik hisobvarag'ida shakllantirish va ushbu mablag'lardan hisobot davri davomida foydalanish imkoniyatini yaratadi.

Majburiy zaxira ajratmalari, pul bazasining muhim elementi hisoblanadi va pul massasining multiplikativ ko'payishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, pul bazasining keskin qisqarishi pul agregatlari miqdorining kamayishiga olib keladi. Chunki, tijorat banklarining "Nostro" vakillik hisobraqamlaridagi pul mablag'lari qoldig'ining kamayishi ularning balansidagi depozitlar miqdorining kamayganligini anglatadi.

Mazkur mexanizm banklar uchun qulayliklar yaratishini hisobga olib, bank tizimi likvidligi umumiy holatidan kelib chiqib, o'rtachalashtirish koeffitsienti bosqichma-bosqich oshirildi. 2024-yil 1-iyuldan boshlab ushbu koeffitsiyent 100 foizga yetkazildi.

-jadval

Majburiy zaxira me'yorlari (2024-yil 1-iyuldan), foizda²

Majburiyat turi	Majburiy zaxira me'yorlari
<i>Yuridik va jismoniy shaxslarning milliy valyutadagi depozitlari</i>	4
<i>Yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasidagi depozitlari</i>	14
<i>O'rtachalash koeffitsiyenti</i>	1

Hozirgi kunda majburiy zaxiralash talabi doirasidagi mablag'lar to'liq vakillik hisobvarag'ida shakllanmoqda, bu esa bank tizimida to'lovlar uzluksizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tamonidan tayyorlandi

2018-yil dekabr oyidan boshlab majburiy zaxiralash faqat milliy valyutada shakllantirilishi amaliyoti joriy etilgan bo'lib, ushbu vositaning pul-kredit siyosatida likvidlikni boshqarish uchun faol qo'llanilayotganligini ko'rsatadi.

Majburiy zaxiralash talabining qaysi valyutada shakllantirilishi xalqaro amaliyotda ham munozarali masala bo'lib, bunday qarorlar bank tizimi likvidligi va bank balanslaridagi dollarizatsiya holatidan kelib chiqib qabul qilinadi. Hozirgi sharoitda, xorijiy valyutadagi depozitlar uchun majburiy zaxiralash talabining xorijiy valyutada shakllantirilishi milliy valyutadagi zaxira talabining sezilarli darajada kamayishiga olib kelishi va bank tizimida likvidlikni samarali boshqarish imkoniyatlarini cheklashi mumkin.

3-jadval

Majburiy zaxira qoldig'i (mlrd. so'm)³

Sana	Jami
01.01.2020 y.	4 187,1
01.01.2021 y.	1 546,8
01.01.2022 y.	2 107,3
01.01.2023 y.	2 638,0
01.01.2024 y.	2 843,5

So'nggi yillarda bank tizimiga bo'lgan ishonchning ortishi, aholi daromadlarining yuqori sur'atlarda o'sishi va masofaviy bank xizmatlari infratuzilmasining rivojlanishi natijasida depozitlar hajmining sezilarli oshishi kuzatilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, majburiy zaxiralash talabining ham mos ravishda oshishini taqozo etadi.

Shuningdek, qattiq pul-kredit sharoitlariga erishish maqsadida bank tizimi likvidligida yuzaga kelgan profitsitni samarali tartibga solish, banklarning daromad keltirmaydigan aktivlarini daromad keltiradigan muqobil instrumentlar bilan almashtirish va shu orqali boshqa aktiv operatsiyalarga (xususan, kreditlarga) bo'lgan narx bosimini pasaytirish maqsadida Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarila boshlangan. Xususan, 2023 yil va 2024 yilning sentabr xolatiga Markaziy bankning jami 36,5 trln. so'mlik obligatsiyalari muomalaga chiqarilib, tijorat banklari o'rtasida joylashtirilgan.⁴

³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

⁴ Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklari orasida joylashtirilgan obligatsiyalar Markaziy bank rasmiy sayti ma'lumotlari www.cbu.uz



1-rasm. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklari orasida joylashtirilgan obligatsiyalar

2023-2024-yillarda shakllangan qo'shimcha likvidlikni uzoq muddatga jalb etish maqsadida jami 36,5 trillion so'mlik Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarilgan. Biroq, 2023-yil avgustdan-noyabr oylariga qadar bank tizimidagi tizimli likvidlikni qisqarishi sababli yangi Markaziy bank obligatsiyalari chiqarilmagan

O'zbekistonda monetar siyosat Markaziy bank tomonidan iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, inflatsiyani nazorat qilish, milliy valyutaning barqarorligini saqlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab quvvatlash yo'nalishlarida olib boriladi. O'zbekistonda ushbu siyosatning zamonaviy xususiyatlarini quyidagi jihatlarida ta'kidlash o'rinlidir:

O'zbekistonda monetar siyosatning asosiy maqsadi inflatsiyani barqaror darajada saqlashdir (inflatsiya darajasini nazorat qilish). So'nggi yillarda Markaziy bank tomonidan inflatsiyani maqsadli darajada ushlab turishga e'tibor qaratilmoqda (inflatsiya targetlashga o'tish). Narxlarning keskin o'zgarishini oldini olish orqali makroiqtisodiy barqarorlik ta'minlanmoqda.

Markaziy bank asosiy foiz stavkasini o'rnatish orqali kredit bozorini boshqarmoqda (foiz siyosati). Asosiy stavka iqtisodiy faollikni rag'batlantirish yoki inflatsiyani nazorat qilishga qarab moslashtiriladi. Foiz stavkalari iqtisodiy davrlarga mos ravishda o'zgarib, kredit olish imkoniyatlarini boshqaradi.

Milliy valyutaning barqarorligini saqlash monetar siyosatning asosiy ustuvorliklaridan biridir. Valyuta kursining erkinlashuvi jarayonida valyuta bozorini tartibga solish strategik ahamiyatga ega. Milliy valyutaning almashuv kursini tartibga solish orqali eksport va import operatsiyalarining barqarorligi ta'minlanadi.

Markaziy bank iqtisodiyotda pul massasining o'sishini nazorat qilmoqda (pul agregatlarini boshqarish). Pul taklifining haddan tashqari oshishini oldini olish uchun sterilizatsiya operatsiyalari amalga oshiriladi. Pul bozoridagi likvidlikni tartibga solish orqali moliyaviy barqarorlik ta'minlanmoqda.

Elektron to'lov tizimlari va raqamli valyutalar bo'yicha ishlar olib borilmoqda. Raqamlashtirish orqali pul-kredit operatsiyalarining samaradorligi oshirilmoqda, bu esa

iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qiladi. O'zbekistonda Markaziy bankning raqamli valyutasi (CBDC) bo'yicha dastlabki tadqiqotlar olib borilmoqda.

Pul-kredit siyosatining boshqaruvi bozor iqtisodiyoti tamoyillariga moslashtirilmoqda. Kredit foizlari va valyuta kursining bozor talabiga mos ravishda shakllanishi yo'lga qo'yilgan. Xususiyl moliyaviy institutlarning iqtisodiy faollikdagi ishtiroki kengaymoqda.

Monetar siyosatni amalga oshirishda tijorat banklari bilan yaqin hamkorlik qilinadi. Markaziy bankning qayta moliyalash operatsiyalari orqali bank tizimidagi likvidlik tartibga solinadi. Tijorat banklari orqali kichik va o'rta biznesni kreditlashni kengaytirish rag'batlantiriladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijasida, Tijorat banklari likvidligini tartibga solishda Pul kredit siyosati instrumentlarining o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha quyidagicha xulosaga kelindi.

Pul-kredit siyosati instrumentlari orqali tijorat banklarining likvidlik resurslarini boshqarish samaradorligi oshishi muhim ahamiyatga ega. Bu banklar o'rtasida resurs almashinuvini yanada shaffof va tartibli tashkil etish, shuningdek, qisqa muddatli depozit operatsiyalarining yaxshilanishiga olib kelishi ahamiyatlidir.

Markaziy bank tomonidan joriy etilgan nazorat va monitoring mexanizmlari yordamida bank tizimidagi moliyaviy risklar sezilarli darajada kamayishi asoslangan. Shu orqali iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishiga moslashuvchanlik va tizim barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan.

Pul-kredit siyosati instrumentlari orqali amalga oshirilgan choralar banklarning likvidlik holatini barqarorlashtirishga xizmat qilgan bo'lib, iqtisodiy o'sish va moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatganligi bilan izohlanadi.

Yuqorida keltirilgan xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflar shakllantirildi.

Markaziy bank va tijorat banklari o'rtasidagi axborot almashinuvi va hamkorlikni yanada kuchaytirish zarur. Bu, instrumentlarning samarali qo'llanilishi va real vaqtda nazoratni ta'minlash uchun muhimdir.

Bank tizimida moliyaviy texnologiyalar va sun'iy intellekt asosida yangi monitoring va tahlil usullarini tatbiq etish orqali likvidlikni boshqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va optimallashtirish taklif etiladi.

Bozor sharoitlaridagi tez o'zgarishlarni inobatga olgan holda, risklarni doimiy tahlil qilish va ularni minimallashtirish bo'yicha yangi metodikalarni ishlab chiqish lozim. Bu, banklarning ichki nazorat tizimlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

Banklar xodimlarining pul-kredit siyosati instrumentlarini to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini oshirish uchun muntazam ravishda maxsus treninglar va seminarlar o'tkazish tavsiya etiladi. Bu, tizimning umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Bozorning dinamik o'zgarishlariga mos ravishda, pul-kredit siyosati instrumentlarini qayta ko'rib chiqish va ularni yangilashga qaratilgan strategik rejalarni ishlab chiqish zarur. Shu tarzda, tizimda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kutilmagan vaziyatlarga tezkor javob berish imkoniyati yaratiladi.

Ushbu xulosalar va takliflar, tijorat banklarining likvidligini tartibga solishda pul-kredit siyosati instrumentlarining o'ziga xos xususiyatlarini yanada samarali qo'llash va

tizim barqarorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, kelgusida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynashi kutilmoqda.

References (Foydalanilgan adabiyotlar)

1. Картаев Ф. Полезно ли инфляционное таргетирование для экономического роста? Вопросы экономики. 2017. №2. – С. 62-74.
2. Банковский менеджмент. Учебник. Под ред. проф. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2011. – С. 213-215.
3. Wadsworth A. An international comparison of inflation-targeting frameworks. Reserve Bank of New Zealand Bulletin, Vol. 80, No. 8, August 2017. – P. 3. Reserve Bank of New Zealand. Act 1989.pdf.
4. Samarina A. and Haan J. Right on target: exploring the factors leading to inflation targeting adoption. Contemporary economic policy. Vol. 32, No. 2, April 2014. – P. 372; Laurens B., et al. The journey to inflation targeting: Easier said than done. The case for transitional arrangements along the road. IMF working paper. WP/15/136. June 2015. – P. 28.
5. Дускобилов У.Ш. Ўзбекистон монетар сиёсатининг замонавий ривожланиш тенденциялари//Иқтисодиёт ва таълим. – Тошкент, 2017. - № 4. – 160-165 б.
6. Board of Governors of the Federal Reserve System. Annual Report 2015. www.federalreserve.gov.
7. Bank of Japan. Annual review. 2015. <http://www.boj.or.jp>
8. Андрюшин С., Бурлачков В. Денежно-кредитная политика и глобальный финансовый кризис: вопросы методологии и уроки для России // Вопросы экономики. – Москва, 2008. – №11. – С. 39.
9. Bank of America. Annual Report. 2013. – P. 150. AR 2013 (2). pdf.
10. Basel Committee on Banking Supervision. www.bis.org/bcbs/index.htm.
11. Бобакулов Т.И., Тошматов Ш.А., Ибрагимов А.К., Усанов А., Бердияров Б.Т. Молия-банк тизимини таҳлил қилиш ва баҳолашда қўлланиладиган халқаро меъёрлар, мезонлар ва стандартлар. Ўқув-услубий қўлланма. – Тошкент: Молия, 2011. – 128 б.
12. В.Рудько-Силиванов, Н.Кучина, М.Жевлакова Организация деятельности Центрального банка. Учебное пособие. – М.: Кнорус, 2011. – С. 32-33.
13. Р.Миллер ва Д. Ван-Хуз Современные деньги и банковское дело. Пер с англ. – М.: ИНФРА-М, 2000. – С. 645-646.
14. Намозов О.Ш. Монетарная политика в переходной экономике: концептуальные подходы и программные направления. Автореферат ... д.э.н. – Ташкент, 2011. – С.11.
15. Тарасевич Л.С., Гребенников П.И., Леусский А.И. Макроэкономика. Москва-Юрайт-2012. – С. 389.
16. Азизов У.Ў., Бобакулов Т.И., У.А. Абдуллаев Монетар сиёсат//Ўқув қўлланма. – Тошкент, 2013. – 32 б.

